

## AYOLLARDA GENDER PSIXOLOGIK RUHIYAT SHAKILLANISHIDA QADRYATLARNING O'RNI

*Nazarova Gulnora Norbekovna*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Psixologiya faoliyat turlari yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ko'p asrlar davomida jinslar o'rtasida rollarni taqsimlashda tabiiy dominantlar so'roq qilinmagan, ammo zamonaviy demokratik jamiyatning me'yorlari va standartlari erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro munosabatning asoslarini hamda hozirgi sharoitga mos keladigan boshqa jihatlarni izlash zarurligini belgilab beradi. Jinslararo munosabatlar madaniyati va gender madaniyati iboralari tobora ko'proq paydo bo'ladigan ilmiy tadqiqotlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hozirgi zamonaning global muommolaridan biriga ayalangan XXI asr jamiyatda ayollarda gender tenglikni shakillanishida qadryatlarning o'rni nechog'liq ahamiyatli. Maqolada zamonaviy jamiyatda gender tenglikni ta'minlashda ayollarning gender psixologik ruhiyatining shakillanishida oilaviy, ijtimoiy, siyosiy qadryatlarning o'rni haqida yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Qadryat, gender, ijtimoiy tafovut, gender madaniyat, gender rollar, gender munosabatlar, gender stereotiplar, oila va nikoh, jins tafovuti

### THE ROLE OF VALUES IN THE FORMATION OF GENDER PSYCHOLOGY IN WOMEN

**Abstract:** For many centuries, the natural dominants in the distribution of roles between the sexes have not been questioned, but the norms and standards of modern democratic society determine the need to search for the foundations of the relationship between men and women and other aspects that correspond to the current situation. will give. The terms intersex culture and gender culture lead to the emergence of more and more scientific studies. How important is the role of values in the formation of gender equality among women in the society of the 21st century, which has become one of the global problems of the present time. The article describes the role of family, social, and political values in the formation of women's gender psychology in ensuring gender equality in modern society.

**Key words:** Value, gender, social difference, gender culture, gender roles, gender relations, gender stereotypes, family and marriage, gender difference

## РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ ГЕНДЕРНОЙ ПСИХОЛОГИИ У ЖЕНЩИН

**Аннотация:** На протяжении многих веков естественные доминанты в распределении ролей между полами не подвергались сомнению, но нормы и стандарты современного демократического общества определяют необходимость поиска основ взаимоотношений мужчин и женщин и других аспектов, которые соответствуют текущей ситуации. Термины интерсекс-культура и гендерная культура приводят к появлению все большего количества научных исследований. Насколько важна роль ценностей в формировании гендерного равенства женщин в обществе 21 века, ставшего одной из глобальных проблем современности. В статье описывается роль семейных, социальных и политических ценностей в формировании женской гендерной психологии в обеспечении гендерного равенства в современном обществе.

**Ключевые слова:** Ценность, гендер, социальные различия, гендерная культура, гендерные роли, гендерные отношения, гендерные стереотипы, семья и брак, гендерные различия.

Ayollar masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizasiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'liqdir. Olimlar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizasiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar.

Gender g'oyasigacha o'tish evolyutsiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi. Har bir davrning o'z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma'no-mazmun bag'ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilab beruvchi ulkan tarixiy voqealar bo'ladi. Bugungi kunda diyorimizda xotin-qizlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Jamiyatimizning turli sohalarida ularning faol ishtirok etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda ayolga bo'lgan munosabat o'z tarixiy ildizlariga ega, ajdodlarimiz doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lishga da'vat etishgan. Respublikamiz BMTning Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllarini yo'q qilish haqidagi konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining Onalikni muhofaza qilish to'g'risidagi, Mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlar to'g'risidagi konvensiyalariga MDH davlatlari orasidan birinchilar

qatorida qo'shildi. Bu hujjatlar xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila va umuman jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar kompleksining tarkibiy qismidir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilinganligi buning yorqin ifodasidir. Mazkur Farmon bilan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sosial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi. Zero, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlat organlari, fuqarolik jamiyati vakillari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi o'z ishini boshladi. Kengash tarkibiga hayotiy tajribaga ega yurtdoshlarimiz, deputat va senator ayollar, olim va professorlar hamda jamoatchilik vakillari kiritildi. Kengash xotin-qizlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni o'qitish, shuningdek, o'z biznesini boshlashlari uchun zarur mablag' bilan ta'minlash orqali aholi, ayniqsa, ayollar va qizlarning turmush darajasi yaxshilanishiga erishish maqsadida tashkil qilindi.

Qadriyat inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari majmuidir. Qadriyatlar ahloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalar va maqsadlardagi baholash mezonini hamda usullarini o'zida aks ettiradi. Voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat. Zamonaviy globallashtirish davrida ayollarning gender tafovotlarining shakillanishida rivojlanib shakillangan qadriyatlar tizimi bir qadraq alohida ahamiyatga ega. Erkak va ayollarning jamiyatda egallagan holatlari va mavqei jihatida tengligini ta'minlash maqsadida so'nggi vaqtlarda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4740345>
2. Сорокин П.А Социальная и культурная динамика / П.А. Сорокин / пер. с англ., В.В. Сапова. – Москва: Астрель, 2006. – 1176 с.
3. Словарь Гендерных терминов / Под ред. А. Денисовой. – Москва: Информация, 2002. – С. 169.
4. Здравомыслова Е. Социальная конструкция гендера и тендерная система в России / Е. Здравомыслова, А. Темкина // Тендерное измерение социальной и политической активности в переходный период. Сборник научных статей. Вып. 4. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 5-11.